

## Sharq mutafakkirlari asarlarida oilaviy shajara va kasb tanlash masalalari

**Kabulova Saboxat Baxadirovna PhD Ma'mun universiteti o'qituvchisi  
Xudaynazarova Dilnura Sirojiddin qizi Ma'mun universiteti psixologiya  
yo'nalishi talabasi**

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining oilaviy shajara va kasb tanlash masalalariga oid qarashlari, ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va amaliy xulosalar batafsil tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** shajara, oilaviy shajara, irsiyat, shajarai sayyid, nasabnoma

Sharq mutafakkirlari inson ma'naviy kamolotining asosiy omillari bo'lgan oilaviy qadriyatlar, shajara va kasb tanlash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ular oilani jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy institut sifatida ko'rib, shajara orqali ajdodlar merosini saqlash va uni keyingi avlodlarga yetkazishning ahamiyatini ta'kidlaganlar. Mutafakkirlarning kasb tanlash borasidagi fikrlari esa shaxsning qobiliyatlari, jamiyatdagi o'rni va mehnatning halolligiga asoslangan.

Sharq falsafasida shajara tushunchasi inson o'zligini anglash va ajdodlar qadriyatlarini davom ettirishning muhim vositasi sifatida qaralgan. Shajara orqali nafaqat oilaning biologik kelib chiqishi, balki uning ma'naviy merosi ham avlodlarga yetkaziladi. Bizningcha, «Kim aslida kim?» – degan savolga psixologik yondashuv orqali javob topadigan bo'lsak, asosiy e'tiborni «oilaviy shajara», «nasabnoma va sulolalar tarixi»ga qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Bir qator tarixchi, sotsiolog, antropolog olimlarning e'tirof etishlaricha, kishilik jamiyati paydo bo'libdi-ki o'ziga to'q, badavlat shaxslar (hukmdorlar, o'zini yuqori yoki oliy tabaqaga mansub deb hisoblaganlar) avlod-ajdodlari to'g'risida ma'lumot qoldirish, ya'ni sulola tarixini yaratishga harakat qilganlar. Bizningcha, psixologik qonuniyatlarga ko'ra, ajdodlari va ularga daxldor ma'lumotlarni yodda (aniq) xotirlash kishidan yuqori darajadagi intellektual salohiyat (IQ)ni taqozo etadi. Qaysidir voris avlodning aqliy salohiyatdagi mavjud nuqsoni, o'z navbatida, ajdodlarga tegishli ma'lumotlarni avloddan-avlodga to'g'ridan-to'g'ri yetkazishda noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois ham, shajaraga ehtiyoj sezishlikning asosiy sabablaridan biri sifatida ushbu omil asos bo'lishi mumkin.

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 01. January 2025

Darhaqiqat, shajaraning o‘zi nima? «Shajara [1] – arabcha «daraxt» degan ma’noni anglatib, kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmuidir» [1; 677-bet].

O.E. Hayitov [2] tadqiqotlarida, «O‘zbekiston hududidagi mavjud shajaralarni quyidagi uch guruh ko‘rinishida turkumlagan:

1) «ijtimoiy-diniy shajaralar» (davrlar o‘tishi bilan qo‘lga kiritilgan yoki ijtimoiy-biologik ta’sirlar natijasida o‘zidan-o‘zi a‘zo bo‘lib qolgan maqomlar avloddan-avlodga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tadigan bo‘ldi va oila a‘zosining ijtimoiy holatiga nisbat berish chog‘ida yoziladigan maqom darajasiga ko‘tarilgan hamda tarixda «shajarai sayyid» nomini olgan shajaralar);

2) «urug‘ shajaralar» (turkiy qavmlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq ko‘rinishda shakllangan shajaralar (masalan, o‘zbeklar shajarasi)) [3; 52–83-betlar];

3) «oilaviy shajaralar» (bugungi kunda o‘zining «yetti avlodi» va (yoki) «yetti pushti»ni bilib qo‘yish va tiklash maqsadida yuzaga kelgan hamda «oilalar shajarasi» yoki «avlodlar (sulola) shajarasi» va nasabnomalari ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan shajaralar» [2; 128 b.].

Forobiy oilaviy shajaraning inson ma’naviy barkamolligini ta’minlashdagi ahamiyatini alohida ta’kidlagan. U o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida yozadi:

“Oila – bu kichik jamiyatdir. Agar oila a‘zolari o‘rtasida uyg‘unlik va ahillik bo‘lsa, bu butun jamiyatga tarqaladi. Shajara esa oila va jamiyatni birlashtiruvchi ramzdir.” [4; 45-46-betlar].

Alisher Navoiy oilaviy qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini o‘zining “Mahbub ul-Qulub” asarida ta’kidlagan. U shunday yozadi:

“Ajdodlarning ezgu ishlari, fazilatlar va hunarlari shajara orqali avlodlarga yetkaziladi. Bu esa insonning kelajakda to‘g‘ri yo‘l tanlashiga yordam beradi.” [5; 123-125-betlar].

Ibn Sinoning fikricha, shajara irsiy omillarni o‘rganish va avlodlarga ilmiy-nazariy merosni yetkazish vositasidir. U “Tib qonunlari” asarida shunday yozadi:

“Insonning sog‘lig‘i va qobiliyatlari ajdodlaridan meros bo‘lib keladi. Shajara orqali bu irsiyatni o‘rganib, kelajakda undan to‘g‘ri foydalanish mumkin.” [Ibn Sino, 6; 67-68-betlar].

Sharq mutafakkirlari oilaviy shajara va kasb tanlashni inson hayotidagi eng muhim masalalar qatoriga qo‘shganlar. Ularning qarashlari bugungi jamiyatda yoshlarni tarbiyalash, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish va ma’naviy qadriyatlarni



mustahkamlash uchun dolzarbdir. Shajara orqali ajdodlar merosini o‘rganish va kasb tanlashda inson qobiliyatlariga e’tibor qaratish zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim saboqlarni beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. To‘ychi hofiz – Sharshara. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 677-bet.
2. Hayitov O.E., Umarova N.Sh. Yoshlarda professional o‘shiga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari (shajaralar negizi misolida): monografiya [Text] / O.Hayitov, N.Umarova; mas’ul muharrir V.M. Karimova. – Toshkent: «Turon-iqbol», 2011. – 128 b.
3. Jabborov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 311 b
4. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan, 1993. 45-47-betlar.
5. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-Qulub. Toshkent: O‘zbekiston, 1972. 123-128-betlar.
5. Ibn Sino. Tib qonunlari. Toshkent: Fan, 1995. 67-69-betlar.

**Research Science and  
Innovation House**